ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINIG EMPATIK RIVOJLANGANLIGINING JINSLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR VA BOG‘LIQLIKLARNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA AMALIY TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH

Xolboyev A.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola asosida Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning psixologik holati, ularda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf qilish usullarini o‘rganib chiqamiz. Talabalarning o‘zaro hissiy tushunish va muammolarini angalash va hissiy empatik rivojlanganlikni o‘rganish asosiy maqsadimizdir

Kalit so‘zlar: talabalik davri, psixologik qo‘llab-quvvatlash, kognitiv rivojlanish, empatiya, shaxs.

Abstract. based on this article, we will study the psychological state of students studying in higher education institutions, the problems they encounter and methods for their elimination. Our main goal is to understand the mutual emotional understanding and problems of students and to study their emotional empathic development.

Keywords: student period, psychological support, cognitive development, empathy, personality.

Аннотация. На основе данной статьи мы изучим психологическое состояние студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, проблемы, с которыми они сталкиваются, и методы их устранения. Наша главная цель — понять взаимопонимание и проблемы студентов, а также изучить развитие их эмоциональной эмпатии.

Ключевые слова: студенческий период, психологическая поддержка, когнитивное развитие, эмпатия, личность.

KIRISH.

Talabalik davri shaxsning intellektual va psixologik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Talabalar ko‘pincha yangi muhitga moslashish, o‘qish jarayonidagi yuklama, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash hamda kelajak kasbini tanlash kabi masalalar bilan yuzlashadilar. Bu jarayonda ayrim talabalar o‘zlarida ishonchsizlik, stress yoki motivatsiyaning pasayishini his qilishlari mumkin. Ba’zan talaba o‘z muammolarini mustaqil hal qilishga harakat qiladi, biroq ba’zi vaziyatlarda psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi.

Talabalar orasida uchraydigan yana bir muammo — ijtimoiy muhitga moslashishdir. Yangi guruh, yangi o‘qituvchilar va yangi talablar talaba uchun dastlab murakkab tuyulishi mumkin. Shu sababli talabalarda o‘z fikrini erkin

ISSN 3030-3907

ifoda etish, jamoadagi o‘rnini topish yoki muloqot qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Bunday holatlarda psixologik xizmatlar talabalarga o‘z muammolarini tushunish va ularni samarali hal qilish yo‘llarini topishda yordam beradi. Talabalarga o‘zidagi ijtimoiy holatni ko‘ra olishiga yordam berish va kognitiv rivojlanishni oshirishni ta’minlash bilan psixologiya shug‘ullanadi, albatta. Kognitiv rivojlanish – bu insonning fikrlash, tahlil qilish, eslab qolish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon talabalarda o‘quv materialini tez va samarali o‘zlashtirish, mavzularni chuqur tushunish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Kognitiv rivojlanish orqali talaba nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, mantiqiy xulosalar chiqarish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini ham o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, ijodiy fikrlash qobiliyati kuchayadi, yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yechimlar topish osonlashadi. Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish talabalarga o‘zini nazorat qilish, samarali o‘rganish strategiyalarini tanlash va har bir vaziyatga moslashish imkonini ham beradi. Natijada, ularning nafaqat akademik yutuqlari oshadi, balki hayotiy muammolarni mantiqiy va tizimli yondashuv bilan hal qilish qobiliyati ham kuchayad. Ushbu tadqiqotimizda talabalarning jins jihatdan “Empatik munosabatlarining o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishga etiborimizni qaratdik olingan natijalarni Mann-Uitni U-mezoni bo‘yicha batafsi qizlar va ygitlar urtasida kuzatilgan farqlqrni bayon etdik.

1-Jadval

V. V. Boyko Empatiya testini o‘rganish so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	jinsi(o‘rtacha ranglar)		U	p
	qizlar (n=10)	ygitlar (n=228)		
Emotsiyalarni boshqara olmaslik	100,15	120,35	946,500	0,346
Emotsiyalarni noto‘g‘ri ifodalash	93,95	120,62	884,500	0,208
His-tuyg‘ularning kam rivojlanganligi	**69,60**	**121,69**	**641,000**	**0,016**
Salbiy emotsiyalarning dominantligi	121,00	119,43	1125,000	0,942
Insonlarga hissiy yaqinlashishni istamaslik	97,95	120,45	924,500	0,298

Izoh: ** $p<0.05$

V. V. Boyko empatiya testining shkalalari bo‘yicha jinslar o‘rtasidagi farqlar Mann–Whitney U-mezoni yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga

ISSN 3030-3907

ko‘ra, “His-tuyg‘ularning kam rivojlanganligi” shkalasi bo‘yicha qizlar va ygitlar o‘rtasida statistik ahamiyatli farq aniqlandi (U=641,0; p=0,016; p<0,05). Ushbu ko‘rsatkich ygitlarda qizlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, ygitlarda hissiy rivojlanish darajasi nisbatan pastroq ekanligini ko‘rsatadi.Tadqiqot jarayonida respondentlarning empatik qobiliyatlari V. V. Boyko tomonidan ishlab chiqilgan empatiyani o‘rganish so‘rovnomasi yordamida aniqlanib, olingan natijalar jins xususiyatlari bo‘yicha taqqoslandi. Tadqiqotda qizlar va ygitlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida noparametrik statistik usul — Mann–Uitni U-mezoni qo‘llanildi. Mazkur mezon tanlanmalarning normal taqsimot qonuniyatlariga to‘liq mos kelmasligi hamda guruhlar hajmining notekisligi sharoitida eng maqbul hisoblanadi. Tadqiqotda qizlar guruhi 10 nafar, ygitlar guruhi esa 228 nafar respondentdan iborat bo‘lib, bu tanlanmalar o‘rtasidagi son jihatidan sezilarli tafovut natijalarning talqinida alohida e’tiborga olindi. Mann–Uitni U-mezoni yordamida shkalalar bo‘yicha o‘rtacha ranglar solishtirildi hamda statistik ahamiyatlilik darajasi baholandi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, empatiyaning ayrim komponentlari bo‘yicha qizlar va ygitlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud bo‘lsa-da, barcha shkalalarda ham bu farqlar statistik jihatdan ishonchli darajada namoyon bo‘lmadi. Xususan, “Emotsiyalarni boshqara olmaslik” shkalasi bo‘yicha qizlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 100,15 ni, ygitlarning ko‘rsatkichi esa 120,35 ni tashkil etdi. Ushbu shkalada hisoblangan empirik qiymat U=946,500, p=0,346 ga teng bo‘lib, natijalar statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmadi. Bu holat qizlar va ygitlarda emotsional holatlarni boshqarishdagi qiyinchiliklar darajasi bo‘yicha ishonchli farq mavjud emasligini ko‘rsatadi. “Emotsiyalarni noto‘g‘ri ifodalash” shkalasi bo‘yicha qizlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 93,95 ni, ygitlarning ko‘rsatkichi esa 120,62 ni tashkil etdi. Hisoblangan natija U=884,500, p=0,208 bo‘lib, mazkur shkalada ham jinsiy farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi. Bu holat har ikki jins vakillarida ham emotsiyalarni tashqi muhitga ifodalashda muayyan darajada qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi.

“His-tuyg‘ularning kam rivojlanganligi” shkalasi bo‘yicha olingan natijalar alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur shkalada qizlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 69,60 ni, ygitlarning ko‘rsatkichi esa 121,69 ni tashkil etdi. Statistik tahlil natijasida U=641,000, p=0,016 qiymatlari qayd etildi. Ushbu p-qiymat p<0,05 darajasida statistik ahamiyatli bo‘lib, mazkur shkalada jinslar o‘rtasida ishonchli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur natija ygitlarda his-tuyg‘ularning rivojlanish darajasi qizlarga nisbatan pastroq ekanligini anglatadi. Ya’ni, ygitlarda emotsional sezgirlik, ichki hissiy jarayonlarni anglash va ifodalash qobiliyatlari nisbatan sustroq rivojlangan bo‘lishi mumkin. Qizlarda esa his-tuyg‘ularning

ISSN 3030-3907

rivojlanganlik darajasi yuqoriroq bo‘lib, bu ularning emotsional sezgirligi va boshqalar holatiga nisbatan yuqori e’tibor bilan ajralib turishini ko‘rsatadi.

“Salbiy emotsiyalarning dominantligi” shkalasi bo‘yicha qizlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 121,00 ni, ygitlarning ko‘rsatkichi esa 119,43 ni tashkil etdi. Hisoblangan natija U=1125,000, p=0,942 bo‘lib, bu ko‘rsatkich mazkur shkalada jinslar o‘rtasida deyarli farq mavjud emasligini ko‘rsatadi. Demak, salbiy emotsiyalarning ustunligi har ikki jins vakillarida ham o‘xshash darajada namoyon bo‘ladi. “Insonlarga hissiy yaqinlashishni istamaslik” shkalasi bo‘yicha qizlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 97,95 ni, ygitlarning ko‘rsatkichi esa 120,45 ni tashkil etdi. Mazkur shkalada U=924,500, p=0,298 natijasi qayd etilib, statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bu holat ygitlar va qizlarda ijtimoiy-emotsional munosabatlarga kirishishga bo‘lgan ehtiyoj darajasi asosan o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan, olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, empatiya tuzilmasining aksariyat komponentlari bo‘yicha jinsiy farqlar kuchli darajada namoyon bo‘lmaydi. Bu holat zamonaviy ijtimoiy muhitda jinsiy rollarning yaqinlashuvi, ta’lim-tarbiya jarayonlarining umumiyligi hamda shaxs rivojlanishiga qo‘yiladigan talablarning bir xil bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin.

Biroq “his-tuyg‘ularning kam rivojlanganligi” shkalasida aniqlangan ishonchli farq jamiyatda ygitlarning emotsiyalarini ochiq ifodalashga kamroq rag‘batlantirilishi, hissiy kechinmalarni bostirishga moyilligi hamda an’anaviy jinsiy stereotiplarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ko‘plab madaniy muhitlarda ygitlardan hissiyotlarini cheklash va qat’iyatli bo‘lish talab etiladi, bu esa ularning emotsional rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, tanlanmalarning notekisligi ham natijalarning umumlashtirilishiga ta’sir qilgan. Qizlar guruhi sonining kamligi statistik natijalarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda jinslar soni tenglashtirilgan kengroq tanlanmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari V. V. Boyko empatiya metodikasi bo‘yicha empatik qobiliyatlarning asosiy komponentlari ygitlar va qizlarda asosan o‘xshash darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi. Faqatgina his-tuyg‘ularning rivojlanganlik darajasi bo‘yicha jinsiy farq mavjudligi aniqlandi. Bu esa empatiya rivojlanishida jinsdan ko‘ra ijtimoiy muhit, tarbiya, shaxsiy tajriba va madaniy omillar muhimroq rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar empatiya rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, korreksion dasturlar hamda shaxslararo munosabatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan amaliy ishlarda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Boyko empatiya metodikasining “His-tuyg‘ularning kam rivojlanganligi” shkalasi bo‘yicha jinslar o‘rtasida ishonchli farq aniqlandi. Ushbu holatlar ayrim hissiy va motivatsion komponentlarda jinsiy xususiyatlarning qisman namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Spearman korrelatsion tahlil natijalari shaxsning temperament va emotsional xususiyatlari bilan motivatsion soha o‘rtasida muhim bog‘liqliklar mavjudligini aniqladi. Xususan, neyrotizm ko‘rsatkichi muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan kuchli ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu hissiy beqarorlik shaxsning faoliyat motivatsiyasini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ekstraversiya–introversiya muvaffaqiyatsizlikdan qochish bilan, ishonchlilik esa motivatsiya bilan salbiy bog‘liqlikda ekanligi aniqlanib, shaxsning ichki barqarorligi uning psixologik moslashuviga bevosita ta’sir qilishini tasdiqladi. Ishlab chiqilgan nazariy model asosida shaxs temperamentining hissiy holat orqali motivatsion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ushbu modelga ko‘ra, neyrotizm, ekstraversiya–introversiya va ishonchlilik shaxsning ichki emotsional holatini belgilab, bu holat muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish yo‘nalishining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsning emotsional, temperament va motivatsion xususiyatlari jinsga qarab keskin farqlanmaydi. Ularning shakllanishida individual psixologik xususiyatlar, shaxsiy tajriba, ijtimoiy muhit va tarbiya omillari muhimroq ahamiyatga ega. Jins omili esa ayrim holatlarda yordamchi yoki ikkilamchi rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari shaxs psixologiyasini o‘rganish, psixologik diagnostika, va o‘zaro bog‘iqliklar shaxs xususiyatlari, motivasion o‘zgarishlarni hissiy empatik jihatlariga ta’sirini ochishga xarakat qilidik.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR:

1. O‘zbekiston Resrublikasi Pryezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son qarori. 2022-yil 28 yanvar.
2. Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот haқида. – Т.: Ёзувчи, 2001. – Б. 15.
3. Асмолов А. Г. Психология личности/А. Г. Асмолов. Москва: Смысл: Академия, 2007. 525 с. Баранов А. А. Стрессоустойчивост и мастерство педагога. Ижевск: Изд-во Удм. Ун-та, 1997.
4. Акчурина, О. Р. Профилактика эмоционалного выгорания Бердяев Н. А. Самопознание/ Н.А.Бердяев.Москва: Книга, 1991.470 с
5. Anderson, J. R. (2010). Cognitive Psychology and Its Implications. New York: Worth Publishers.

ISSN 3030-3907

6. Piaget, J. (1970). Child Development / Educational Psychology [O‘zbekcha tavsif].
7. Roos, T. (2014). Surrounded by Idiots: The Four Types of Human Behavior and How to Effectively Communicate with Each in Business (and in Life). Stockholm: Roos & Partners.

ISSN 3030-3907